

Topshiriqsiz harakat qilish instituti - fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa harakatlari orqali vujudga keluvchi fuqarolik huquq va burchlarni vujudga keltiruvchi asos sifatida.

G‘anijonova Mavludabonu Sharifjon qizi
Toshkent Davlat Yuridik universiteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa harakatlari orqali fuqarolik-huquqiy munosabatlarning vujudga kelish asoslaridan biri sifatida “topshiriqsiz harakat qilish” instituti huquqiy jihatdan tahlil qilinib, uning fuqarolik huquqida tutgan o‘rni batafsil yoritiladi. Mazkur institutning tarixiy ildizlari Rim xususiy huquqidagi **negotiorum gestio** tushunchasiga borib taqalishi hamda uning zamonaviy fuqarolik qonunchiligida, shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 826-831-moddalarida qanday ifodalanganligi va xorijiy mamalakatlar (Fransiya, Xitoy, Rossiya) kabi davlatlar qonunchiligi bilan qiyosiy o‘rganilishi yoritib beriladi. shuningdek, mazkur institutning boshqa institutlardan farqli jihatlari, amaliy misollar va bir nechta olimlar fikrlari asosida huquqiy mohiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: topshiriqsiz harakat, fuqarolik huquqi, negotiorum gestio, manfaatdor shaxs, qonuniylik, shartnomasiz munosabatlar, gestor, majburiyatlar, kvazi-shartnoma

Kirish

Fuqarolik qonunchiligida shunday bir holat borki, bunda shaxs hech qanday topshiriqsiz hamda vakolat yoki ruxsatga ega bo‘lmay turib, boshqa shaxs foydasiga muayyan harakatlarni amalga oshiradi. Shu o‘rinda tabiiy savol vujudga keladi: bu turdagi harakatlar oqibatida fuqarolik-huquqiy munosabatlar yuzaga kelishi mumkinmi yoki yo‘q?

Begona shaxsning manfaatini ko‘zlab topshiriqsiz harakat qilish dastlab Rim xususiy huquqida tartibga solingan. Unda yozilishicha, shartnomalarga o‘xshash harakatlar asosida majburiyatlarning kelib chiqish asoslari xuddi shartnomalar asosida kelib chiqadigan majburiyatlarga o‘xshasa ham, ammo o‘rtada shartnoma tuzilmasdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlardan iborat bo‘lib, o‘z mazmuni va xarakteri bilan unchalik bir-biridan farq qilmaydi. Bu kabi harakatlar shartnomalar yoki deliktlar natijasida emas, balki bir tomonlama bitim yoki boshqa faktlar asosida vujudga kelishi asoslangan. Shartnomalarsiz amalga oshiriladigan harakatlarning asosini “negotiorum gestio” atamasi ya’ni negotiorum gestio topshiriqsiz boshqalarning ishini amalga

oshirish yoki boshqa shaxslar uchun g'amxo'rlik qilishlik tashkil qiladi. Negosiorum gestio - shartnomalarga o'xshash harakatlar natijasida majburiyatlarning kelib chiqish asoslaridan biri bo'lib, topshiriqsiz bir shaxs tomonidan gestor (gestor) ikkinchi shaxsning nomidan va ikkinchi shaxs hisobiga ma'lum bir harakatlarni bajarishlik yoki uni mulkini boshqarishlikdan iboratdir ¹.

Topshiriqsiz harakat-bu shaxsning o'z xohish irodasidan kelib chiqib amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi. Topshiriqsiz harakat qilishning boshqa harakatlardan farqli jihatlaridan biri shundaki ushbu harakatni bajarishda hech qanday tashqi ta'sir yoki talab qilish holatlari kuzatilmaydi. Fuqarolik institutida boshqa harakatlar natijasida vujudga keladigan huquq va burchlarning biri sifatida topshiriqsiz harakat qilishni asos sifatida keltirishimiz mumkin. Ushbu asosning mohiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zR Fk ning 47-bobi aynan begona shaxsning manfaatini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilishga bag'ishlangan bo'lib, bu bob o'z ichiga 826-831-moddalarni qamrab oladi va ushbu harakatlar aynan shu moddalar orqali tartibga solingan bo'lib, bunda bir shaxs manfaatdor shaxsning topshirig'isiz, boshqaning ko'rsatmasisiz yoki oldindan va'da berilgan roziligisiz qilingan xatti-harakatlar topshiriqsiz harakatlar asosini tashkil etadi. Ushbu institutni boshqa institutlardan farqlaydigan bo'lsak, avvalo shartnomaviy xarakterdagi fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz. Ya'ni bunda shaxslar o'rtasida oldindan shartnoma yoki bitim imzolanmaydi. Tomonlar o'rtasida o'zaro kelishuv ham mavjud bo'lmaydi. Shuningdek, qonun buzilish holatlari ya'ni deliktdan ham farqlab olishimiz zarur. Ya'ni topshiriqsiz harakatni sodir etayotgan shaxs manfaatdor shaxsga zarar yetkazish emas, balki foyda keltirish yoki zarur g'amxo'rlik hamda zarar xavfini oldini olishni maqsad qilib oladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 826-moddasida begona shaxsning manfaatlarini ko'zlab harakat qilish shartlari keltirilgan. Unga ko'ra:

Manfaatdor shaxsga yoki uning mol-mulkiga zarar yetkazilishining oldini olish, uning majburiyatlarini bajarish yoki uning qonunga zid bo'lmagan boshqa manfaatlarini ko'zlab, uning topshirig'isiz, boshqa ko'rsatmasisiz yoki oldindan va'da berilgan roziligisiz qilingan harakatlar (begona shaxsning manfaatini ko'zlab qilingan harakatlar) ochiq ko'rinib turgan manfaat yoki foydadan hamda manfaatdor shaxsning haqiqiy yoki ehtimol tutilgan niyatlaridan kelib chiqib hamda ishning holatlariga ko'ra zarur g'amxo'rlik va ehtiyotkorlik bilan qilinmog'i kerak.

Ushbu bobda nazarda tutilgan qoidalar bunday harakatlar faoliyatining maqsadlaridan biri bo'lgan davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari boshqa

¹ "Rim huquqi" darslik. Oral Ernazarov. 2005

shaxslar manfaatlari yoʻlida amalga oshiradigan harakatlarga nisbatan qoʻllanmaydi². Masalan, Toshkentga yangi koʻchib kelgan oila kechki sayrdan qaytayotgan paytda tasodifan mashinalar toʻqnashishi oqibatida ota-ona vafot edi va ularning ikki farzandi bor edi. Ularning qoʻshnisi bolalarga gʻamxoʻrlik qilish maqsadida bolalarni saqlab oldi. Ikkinchi holatda esa ikki bolani davlat mehribonlik uyi tarbiyachilariga topshirishni maʼqul koʻrdi. Bu ikki holatni moddaga asosan tahlil qiladigan boʻlsak, birinchi vaziyatda ikki farzandni saqlab olgan qoʻshni begona shaxsning manfaatini koʻzlab topshiriqsiz harakat qilish institutining subyektini boʻla oladi. Chunki, ushbu qoʻshni tomonidan amalga oshirilgan harakatlar ikki farzand uchun foydali. Ikkinchi holatimizda mehribonlik uyi tarbiyalovchilari tomonidan ikki bola uchun amalga oshirilgan koʻmak ushbu institutning qoidalariga toʻgʻri kelmaydi, yaʼni ushbu harakatlar ularning kasb vazifalari sirasiga kiradi.

Rus olimi E.A.Suxanovning fikricha, boshqa shaxs manfaatlarini koʻzlab topshiriqsiz harakat qilish tushunchasi ikki xil majburiyatlardan kelib chiqadi:

Birinchi, birovning shaxsiga yoki mulkiga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida qilingan harakatlardan kelib chiqadigan majburiyatlar, misol sifatida hayoti, sogʻligʻi, mulkini saqlab qolish uchun qilingan harakatlarni keltirishimiz mumkin.

Ikkinchi, bitim bilan bogʻliq holatda yuzaga keladigan majburiyatlar, masalan, yoʻq shaxsning mulkini taʼmirlash yoki himoya qilish uchun shoshilinch toʻlovlarni amalga oshirish.

Koʻrib chiqilayotgan majburiyatlarning yana bir mazmuni manfaatdor shaxsning bunday harakatlarni sodir etgan shaxsga xarajatlarini qoplash majburiyatidir. Shuningdek, bu institut doirasida koʻzlangan natijaga erishish muhim ahamiyat kasb etmaydi. Bu majburiyatlarda haqiqatdan ham tovon miqdori yetkazilgan zarar bilan cheklanadi. Biroq, oʻrnini qoplash haqqining miqdori mol-mulkning qiymatidan oshib ketmasligi kerak.

Shunday holatlar ham sodir boʻlishi mumkinki, birovning manfaatlarini koʻzlab harakat qilish natijasida manfaatdor shaxslarga yoki uchinchi shaxslarga mulkiy zarar yetkazilishi mumkin³.

Shuningdek I.Zokirov kitobida ushbu institutni quyidagicha taʼriflab ketgan: Boshqa shaxslarning ishlarini topshiriqsiz bajarganlik sababli kelib chiqadigan majburiyatlar toʻgʻrisidagi qoidalar ham qonunlarda mavjud.

² Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2-qism.

³ РОССИЙСКОЕ ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО, Ответственный редактор –заслуженный деятель науки РФ, доктор юридических наук, профессор Е.А. Суханов.

Qonunlarda ko'rsatilishicha, boshqa shaxs manfaatlarini ko'zlab topshiriq olmay harakat qilgan shaxs, shu munosabat bilan qilgan zarur xarajatlarning, shuningdek boshqa haqiqiy zararni to'lanishini talab qilishga haqli. Agar manfaatdor shaxs topshiriq olmay harakat qilgan shaxsning ishini ma'qullasa, bunday hollarda FKning topshiriq shartnoma to'g'risidagi qoidalari qo'llaniladi va majburiyatlarning kelib chiqishiga asos bo'ladi⁴.

Bundan tashqari xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga ham nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu topshiriqsiz harakat qilishni va qanday tartibda himoya qilinishini tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Dastlab, Fransiya fuqarolik huquqiga nazar tashlaydigan bo'lsak, topshiriqsiz harakat qilish alohida Kvazi-shartnomalar bobida ya'ni 1371-1381-moddalari orqali tartibga solingan. Fransiya fuqarolik kodeksining 1371-moddasida Kvazi-shartnomalar - bu insonning sof ixtiyoriy harakatlari bo'lib, buning natijasida uchinchi shaxsga nisbatan ba'zi majburiyatlar ba'zan esa har ikki tomonning o'zaro majburiyatlari paydo bo'ladi. 1372-moddasida esa agar biror kishi boshqa birovning biznesini ixtiyoriy ravishda boshqarayotgan bo'lsa, xo'jayin boshqaruvdan xabardormi yoki yo'qmi, boshqarayotgan shaxs o'zi boshlagan boshqaruvni davom ettirish va egasining o'zi unga g'amxo'rlik qilish imkoniyatiga ega bo'lgunga qadar uni yakunlash to'g'risida so'zsiz majburiyat oladi, u ham ushbu biznesning barcha davomi uchun mas'ul bo'lishi kerak.

Keyin u egasi unga ishonib topshirishi mumkin bo'lgan aniq vakolatdan kelib chiqadigan barcha majburiyatlarga bo'ysunadi⁵.

Bundan tashqari, Xitoy fuqarolik kodeksi XXVIII bobi 979-moddasida agar na qonunda na shartnomada nazarda tutilgan majburiyatga ega bo'lmagan shaxs boshqa shaxsning manfaatlarini yo'qotishiga yo'l qo'ymaslik uchun uning ishlarini boshqarish bo'yicha vasiy sifatida ishlasa, ko'rsatilgan shaxs foyda oluvchidan shu tariqa qilingan zarur xarajatlarni qoplashni talab qilishi mumkin. Agar bunday vasiy boshqa shaxsning ishlarini boshqarishda zarar ko'rgan bo'lsa, vasiylik oluvchidan tegishli kompensatsiyani talab qilishi mumkin⁶.

Fuqarolik qonunchiligida fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa harakatlaridan vujudga keladigan harakatlarni aniq belgilab bermagan bo'lsada topshiriqsiz harakat qilishni aynan ushbu harakatlar toifasiga kiritishimiz mumkin. Ushbu institut orqali huquq hamda majburiyatlar yuzaga keladi va bu boshqa harakat sifatida huquqiy oqibatlarga sabab bo'ladigan va qonuniy asosga ega bo'lgan muhim institutlardan biri

⁴ I.Zokirov. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. -T.: Adolat. 1996.-273 b.

⁵ Civil Code of France <https://www.fd.ulisboa.pt/wp-content/uploads/2014/12/Codigo-Civil-Frances-French-Civil-Code>.

⁶ Civil Code of Civil People's Republic of China

<https://regional.chinadaily.com.cn/pdf/CivilCodeofthePeople'sRepublicofChina.pdf>.

hisoblanadi. Ayrim holatlarda subyektiv-obyektiv xarakterga ega bo'lgan turli xil sabablar natijasida shaxslar boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlagan holda ma'lum bir xatti-harakatlarni sodir etishga garchi vakolati bo'lmasa ham zarurat paydo bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarni favqulodda vaziyatlar yoki tabiiy ofatlar bilan bog'lashimiz mumkin. Masalan, A ismli shaxsning uyida yong'in chiqishi natijasida mol-mulki xavf ostida qolgan vaziyatda G ismli shaxs uning mol-mulkini nobud bo'lishidan saqlash uchun suv orqali o'tni o'chirishga harakat qiladi. Bu holatda G ismli shaxs topshiriqsiz harakat qilish institutining subyektiv sifatida e'tirof etilishi mumkin. Chunki, ushbu shaxs A ismli shaxsning topshirig'isiz, hech qanday kelishuvlarsiz, uning manfaatlarini ko'zlab amalga oshiryapti.

Rus olimi G.N.Shevchenko shunday yozadi: "Fuqarolik Kodeksining 50-bobida "Boshqaning manfaatlarini ko'zlab buyruqsiz harakatlar" ikki turdagi majburiyatlarni tartibga soladi: boshqa shaxsning sog'lig'i, hayoti yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishining oldini olishga qaratilgan haqiqiy harakatlardan kelib chiqadigan majburiyatlar va boshqa shaxsning manfaatlarini ko'zlab, buyruqsiz bitimlar natijasida kelib chiqadigan majburiyatlar⁷.

Yana muhim jihatlaridan biri ushbu turdagi fuqarolik-huquqiy munosabatda ayrim vaziyatlarda bu turdagi harakat manfaatdor shaxsning foydasi uchun sodir etilgan bo'lsada, har doim ham ijobiy natija ko'rsatmasligi mumkin. Bu kabi holatlarda O'z Resi Fuqarolik kodeksi 827-moddasida belgilanganidek, agar ushbu harakat foydasiga amalga oshirilgan shaxs ushbu harakatlarni ma'qullamasa bu harakat bo'yicha barcha javobgarlik topshiriqsiz harakat qilgan shaxs zimmasiga yuklatiladi. Bu esa, ushbu munosabatlarda faqat obyektiv jihatdan emas, balki subyektiv tomondan ham yondashishlikni ya'ni manfaatdor shaxsning erk-irodasi ham zarur ahamiyatga egaligini anglatadi.

Rus huquqshunoslari tomonidan yozilgan ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, buyurtmasiz boshqa bironing manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan harakatlarning huquqiy mohiyatiga oid turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish natijasida majburiy huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keladigan yuridik fakt sifatidagi harakatlarning quyidagi tushunchasi taklif etiladi. Buyurtmasiz boshqa bironing manfaatlarini ko'zlab harakat qilish - bu bir shaxs (gestor) tomonidan boshqa shaxs (dominus) manfaatlarini ko'zlab, shartnoma munosabatlari va huquqiy qoidalar mavjud bo'lmaganda amalga oshirilgan qonuniy haqiqiy harakatlar (huquqiy hujjatlar) yoki bir tomonlama majburiy bitimlar bo'lib, ular "shartnoma" yoki "shartnoma"

⁷ <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelnyy-analiz-deystviy-v-chuzhom-interese-bez-porucheniya-i-otnosheniya-predstavitelstva-bez-polnomochiy-kak-odnostoronnih-sdelok>.

shartnomasining bir turi (kvazi-kontrakt) majburiyatlarining paydo bo'lishiga olib keladi⁸.

Ushbu harakatlarni boshqa harakatlar sifatida keltirishimizning asosiy sabablaridan biri-bu ularning avvaldan mavjud bo'lmagan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi huquqiy asosga bog'liq bo'lmashligi, balki vaziyat taqozosidan kelib chiqib, muayyan foydani yoki vujudga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan zararni oldini olishga qaratilgan harakatlardan iboratligidir. Topshiriqsiz

harakat qilishda shaxslar erkin irodaviy xususiyatga ega bo'lsalar ham ularning ushbu harakatlari yuridik jihatdan mustahkamlab qo'yilmagan. Bundan tashqari, ular qonun normalari va normativ-huquqiy hujjatlar bilan muhofaza qilinishi ya'ni ushbu holatlarda ikki tomonning ham manfaatlari doirasida harakat sodir etilishi masalasi tartibga solingan. Bundan ko'rinib turibdiki, topshiriqsiz harakat sodir etish boshqa harakatlar sifatida fuqarolik institutida mustaqil asosni shakllantiradi. Ularning huquqiy tavsifiga keladigan bo'lsak, fuqarolik huquqi institutining muhim qoidalariga asoslangan bo'lib: qonuniylik, adolatlilik, oqilonalik hamda manfaatlarni himoya qilish kabi mezonlarga asoslanadi.

Takliflar

Birinchidan, boshqa harakatlar orqali fuqarolik-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi asos sifatida "topshiriqsiz harakat qilish" institutini boshqa tarmoq sohalaridan ajratish va takomillashtirish. Begona shaxsning manfaatini ko'zlab topshiriqsiz harakat qilish instituti murakkab huquqiy tarmoqlardan biridir. Bir tomondan, xatti-harakatlarning o'zi majburiy munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keladigan yuridik fakt sifatida qaralishi mumkin bo'lsa boshqa tomondan, bu o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan majburiy huquqiy munosabatlardir. Shuningdek, boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan harakatlar vakillik, agentlik shartnomasi, asossiz boyib ketish va zarar yetkazish natijasida kelib chiqadigan majburiyatlar kabi huquqiy tarmoqlar bilan ko'p umumiyliklarga ega. Ularni ajratish nihoyatda zarur, chunki muayyan munosabatlarni tartibga soluvchi tegishli qoidalarni to'g'ri qo'llash kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarni oldini olishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, topshiriqsiz harakatlarning oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlarining huquqiy tartibini mustahkamlash: hozirgi tartibda bu boradagi majburiyatlar umumiy qoida shaklida berilgan. Qonunchilikda manfaatdor shaxs

⁸ Обязательства, возникающие из действий в чужом интересе без поручения. Тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 12.00.03, кандидат юридических наук Егорова, Елена Николаевна.

<https://www.dissercat.com/content/obyazatelstva-voznikayushchie-iz-deistvii-v-chuzhom-interese-bez-porucheniya>.

tomonidan harakatni ma'qullash va rad etish holatlari vujudga kelganda qanday huquqiy oqibatlar kelib chiqishi aniq va batafsil, tafsilotli ko'rinishda ko'rsatilishi lozim.

Xulosa

Fuqarolik huquqida fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi huquq va burchlar odatda shartnomalar, deliktlar yoki boshqa huquqiy asoslar orqali vujudga keladi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ba'zan shaxslar huquqiy vakolatlarsiz, boshqa birovning manfaatini ko'zlab harakat qilishlariga to'g'ri keladi. Aynan shunday vaziyatlarda "topshiriqsiz harakat qilish" instituti muhim rol o'ynaydi. Mazkur institut orqali qonunchilik boshqa birov manfaatiga ixtiyoriy va zaruriyatdan kelib chiqib sodir etilgan harakatlarni fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 826–831-moddalarida ushbu institutga oid huquqiy normalar belgilangan bo'lib, u orqali harakat qilgan shaxs va manfaatdor tomon o'rtasidagi huquqiy majburiyatlar yuzaga keladi. Ushbu institutning asosiy jihati — harakat foydali yoki zarar oldini olishga qaratilgan bo'lishi, biroq bu harakatlar hech qanday topshiriqsiz amalga oshirilgan bo'lishidir.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, topshiriqsiz harakat qilish instituti faqatgina fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solibgina qolmay, balki insoniylik, g'amxo'rlik va adolat tamoyillariga asoslangan yondashuvni ham aks ettiradi. Shu bois ushbu institutni huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish, xorijiy tajribalardan unumli foydalanish va sud amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Topshiriqsiz harakat qilish — har doim ham ijobiy natijaga olib kelmasligi mumkin bo'lgan, ammo shaxsning ezgu niyatidan kelib chiqqan huquqiy harakatdir. Ushbu institut fuqarolik huquqining noan'anaviy, lekin zaruriy asoslaridan biri bo'lib, uni qonunchilikda yanada mukammalroq shakllantirish fuqarolik muomalasining barqarorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Rim huquqi" darslik. Oral Ernazarov. 2005
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2-qism.
3. БРОССИЙСКОЕ ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО, Ответственный редактор – заслуженный деятель науки РФ, доктор юридических наук, профессор Е.А. Суханов.
4. I.Zokirov. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. -T.: Adolat. 1996.-273 b.

5. Civil Code of France <https://www.fd.ulisboa.pt/wp-content/uploads/2014/12/Codigo-Civil-Frances-French-Civil-Code>.
6. Civil Code of Civil People's Republic of China <https://regional.chinadaily.com.cn/pdf/CivilCodeofthePeople'sRepublicofChina.pdf>.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelnyy-analiz-deystviy-v-chuzhom-interese-bez-porucheniya-i-otnosheniy-predstavitelstva-bez-polnomochiy-kak-odnostoronnih-sdelok>.
8. Обязательства, возникающие из действий в чужом интересе без поручения. Тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 12.00.03, кандидат юридических наук Егорова, Елена Николаевна. <https://www.dissercat.com/content/obyazatelstva-voznikayushchie-iz-deistvii-v-chuzhom-interese-bez-porucheniya>.